

2p

Vatan yagonadir,
Vatan bittadir!

N:23 (66980)

2014-yil

9-iyun

TONG YULDUZI

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

ISSN – 2010-6092

«KIM KO'P KITOB O'QIYDI?»

respublika tanloviga marhamat!

8-bet



– Men yozgi ta'tilda beshta badiiy kitob o'qimoqchiman, – deydi poytaxtimizning Uchtepa tumanidagi 297-umumta'lim maktabining 5-«B» sinf o'quvchisi Zilolaxon RUSTAMOVA.



SOG'LOM BOLA

Tongda tilab pok niyat,
Qilsa badan tarbiyat.
Undan olsa kuch-quvvat,
Har kuni bo'lsa odat.
Ko'cha-ko'ya odobli,
Qilgan ishi savobli.
Kattani qilib hurmat,
Kichikni qilsa izzat.
O'zi kamtar, xokisar
O'qish, mehnatda ilg'or.
Har yumushda madadkor,
Hech kimga bermas ozor.
Sevsa sevimli yurtin,
To'tiyo qilib gardin.
Ardoqlab obod qilsa,
O'zin yuntparvar bilsa.
Demak, u sog'lom bola,
Bo'lajak pokson bola.
Hech kimdan kam bo'lmagan
O'zi bek, o'g'lom bola.
Tohir MULLABOYEV,
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan jurnalist

Ushbu sonda:

**OROMGOHLAR
QUVONCH
ULASHAR**

2-bet

**SHUKURJONGA
ZO'R SOVG'A**


3-bet

**ULKAN
YUTUQLARGA
CHORLAYVER.
«BARKAMOL
AVLOD»!**

7-bet

DUNYO BOLALAR NIGOHIDA

Maktublar qadim-qadimdan insonlarni biri-biri bilan bog'lab kelgan rishta hisoblanadi. Olis safarga o'tilgan karvonlar savdogarlari, qolaversa, kabutarlar ham bu vazifani imkon qadar bajarishgan. Yaqinda «O'zbekiston pochta» OAJ, O'zbekiston Respublikasi Aloqa, axborotlashtirish va telekommunikatsiya texnologiyalari davlat qo'mitasi hamda O'zbekiston Badiiy akademiyasi bilan hamkorlikda «Dunyo bolalar nigohida» mavzusida respublika tanlovi bo'lib o'tdi. «Mening orzum» maxsus pochta markalarini chop etish uchun o'tkazilgan tanlovda 8 yoshdan 12 yoshgacha bo'lgan o'quvchilar o'zaro bellashdi.



endilikda maktublar bilan birga yer yuzining turli burchaklariga yetib boradi. Bu esa iftixor etsa arzigulik voqea.

Tanlovda «Kosmonavt» rasmi uchun birinchi o'rinni egallagan Yunusobod tumanidagi 43-umumta'lim maktabining 2-«D» sinf o'quvchisi Sardor Sulaymonov bilan suhbatlashdik. «Kelajakda kim bo'lmoqchisan?» degan savolimga u «Oshpaz», deb javob berdi. Chizgan suratlarini bilan dunyoga chiqib ulgurgan Sardor bir kun kelib, o'zbek milliy taomlarining mohir ustasi bo'lib dunyoga tanilsa, ne ajab. Shuningdek, «Quvnoq kamalak» deb nomlangan rasmi bilan g'olib bo'lgan Yunusobod tumanidagi 260-umumta'lim maktabining 3-«B» sinf o'quvchisi Kamila Ahmadova bilan suhbatlashdik. Maktabning a'lochi o'quvchisi, ona tili, matematika va ingliz tiliga qiziqadigan Kamilaning orzusi rassom bo'lish ekan. Uni orzulari yo'lidagi ilk qadami bilan tabrikladik.

Nufuzli hay'at tomonidan har bir chizilgan rasm alohida e'tibor bilan ko'zdan kechirildi.

G'olib o'quvchilarning chizgan rasmlari asosida «O'zbekiston pochta» OAJ tomonidan tayyorlangan

pochta markalari 2014-yilning 30-may sanasidan boshlab muomalaga kiritildi. Yangi pochta markalarini tantanali so'ndirish marosimi esa bayramga aylanib ketdi. E'tiborli tomoni, tengdoshlaringiz ijod namunasi,

Yusuf ABDULLAYEV

Xayr maktab, salom yoz,
Kelganing bo'ldi ko'p soz,
Oromgohlar bog'rida,
Orom olaylik biroz.

OROMGOHLAR QUVONCH ULASHAR

Aziz o'quvchilar! Siz orziquib kutgan yozgi ta'til davri ham boshlandi. Ta'tilni maroqli va mazmunli o'tishi, albatta, o'zingizga bog'liq. Kimdir uyda, kimdir qishloqda — bobosinikida, yana kimdir oromgohlarda dam olishni xohlaydi.

«Yoz – 2014» mavsumida bolajonlarning ko'ngildagidek hordiq chiqarishlari uchun oromgohlarda qanday tayyorgarlik ko'rilgan? Ushbu savol bilan O'zbekiston Kasaba uyushmalari Federatsiyasi Kengashi Matbuot xizmati rahbari Muhabbat O'RMONBEKOVA murojaat qildik.

– Respublikamizda bu yilgi bolalarni yozgi sog'lomlashtirish mavsumiga har yilgidan ko'ra o'zgacha hozirlik ko'ridi. Joriy yilda 3 ta yangi oromgoh qurilib, 16 ta oromgohda rekonstruksiya, 24 tasida esa kapital ta'mirlash ishlari olib borildi.

Respublikamiz miqyosida jami 1085 ta oromgoh yozgi mavsumga

shaylandi. Ularning 214 tasi stasionar, 739 tasi kunduzgi, 132 tasi mehnat va dam olish oromgohlaridir. Mavsum davomida ushbu maskanlarda 281 ming 892 nafar bola sog'lomlashtirilishi rejalashtirildi.

Bu yil ham 214 ta ixtisoslashgan oromgohlar tashkil etiladi. Ahamiyatli tomoni shundaki, ushbu yil mavjud yo'nalishdagi oromgohlar qatoriga badiiy ijodkorlik yo'nalishidagi oromgohlarning qo'shilishi mavsum yangiliklaridan biri bo'ldi. Eng muhimi, mazkur ixtisoslashgan dam olish maskanlariga bolajonlar o'z qiziqishlari va iqtidorlariga muvofiq jalb etiladi.



Har yilgidek, Bo'stonliq tumanidagi «Quyoshi»da «Intellectual rivojlantirish» oromgohi tashkil etilib, unda bilimlar bellashuvining 520 nafar g'olibi sog'lomlashtiriladi. Shuningdek, joylarda 14 ta mazkur yo'nalishdagi oromgoh tashkil etilib, bilimlar bellashuvining hududiy bosqichlarida g'olib bo'lgan 1400 nafar iqtidorli o'quvchilar jalb etiladi.

O'smir yoshidagi o'g'il-qizlar uchun mo'ljallangan mehnat va dam olish oromgohlari joriy yilda qariyb ikki barobarga ko'paydi. Mahalliy hokimliklar hamda bir qator korxonalar, tashkilotlar bilan hamkorlikda tashkil etilayotgan bunday oromgohlar akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o'quvchilariga mo'ljallanmoqda. Ular korxonalar yoki tashkilotlarda amaliyot o'tash bilan birgalikda hordiq chiqarishlari ham tashkil etiladi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyati hududidan 4,5 ming nafar bolalar Toshkent shahri, Jizzax, Samarqand, Qashqadaryo va Toshkent viloyatlaridagi eng bahavo oromgohlarda imtiyozli sog'lomlashtiriladi.

Ijtimoiy himoyaga muhtoj, kam ta'minlangan, imkoniyati cheklangan va boquvchisini yo'qotgan oila farzandlari, Mehribonlik uylari va maktab-internat tarbiyalanuvchilari bir qator hamkor tashkilotlar yordamida shunday oilalarning 600 nafari imtiyozli dam oladi.

Surxondaryo viloyatining Sariosiyo va Uzun tumanlaridagi kam ta'minlangan oilalarning 100 nafar farzandi hamda Mehribonlik uylarining 2 ming nafar tarbiyalanuvchisi, 50 nafar jismoniy imkoniyati cheklangan bolajonlar so'lim go'shalarda bepul sog'lomlashtiriladi.

Bu yil amalga oshirilgan xayriy ishlar samarasi o'laroq, bolalar ma'naviyatini yuksaltirish, ularning dunyoqarashini kengaytirish, vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga yo'naltirilgan madaniy-ma'rifiy tadbirlar rejalashtirildi. Xususan, barcha turdagi oromgohlarda «Mustaqillik mening taqdirimda», «O'zbekiston – baxtiyor bolalar mamlakati», «Kasaba uyushmalari – bolalarga» aksiyalarini o'tkazish ko'zda tutilgan. Shuningdek, yozuvchilar, san'atkorlar, sport ustalari bilan uchrashuvlar va davra suhbatlari tashkillashtiriladi. Oromgohlar joylashgan hududlar tarixi bilan tanishtirish, boy hayotiy tajribaga ega bo'lgan insonlar bilan muloqotlari uyushtirish ishlari amalga oshiriladi.



ZUBAYDA va SHAHBOZ olgan suratlar

OLMOS yozib oldi

BIZ VATANNI KUYLAYMIZ

tengdoshlaringizning ijodiy ishlari ko'rgazmasi ana shunday nomlandi

Bugun yurtimizda yosh avlodni har tomonlama sog'lom va barkamol qilib tarbiyalash masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, bu borada bolalarni kasb-hunarga yo'naltiruvchi to'garaklarning o'rni beqiyos.

Qo'qon shahridagi «Iqtidor» imkoniyati cheklangan bolalarni qo'llab-quvvatlash markazida o'quvchilar rang-tasvir, bo'rtma kandakorlik, gilam to'qish, yapon tili va san'ati kabi jami 4 ta yo'nalish bo'yicha tajribali mutaxassislardan saboq olishadi.

Kuni kecha poytaxtimizdagi Madaniyat va san'at ko'rgazmasi zalida ushbu markaz tomonidan «Biz vatanni kuylaymiz» nomli ko'rgazma tashkil etildi.

Tadbir doirasida ushbu to'garak a'zolarining diqqatga sazovor ishlari namoyish qilindi.

Bir-biridan go'zal, bejirim ijod namunalari orasida nozik did va yuksak mahorat bilan yasalgan sandiq e'tiborimizni tortdi. Ushbu san'at asarining muallifi Qo'qon shahridagi 16-umumta'lim maktabi o'quvchisi, bo'rtma kandakor yo'nalishi a'zosi Ayubxon Madaminov ekan.

— Bu hunar kishidan qunt, sabr-toqat va ijodiy yondashuvni talab etadi. Bu yil o'qishni shahrimizdagi dizayn kollejida davom ettirmoqchiman. Kelgusida bo'rtma



kandakorlik va o'yimakorlik yo'nalishlarida ijod qilish niyatidaman, — deydi Ayubxon quvonib.

Qadrlil o'quvchilar! Yozgi ta'til kunlarini maroqli o'tkazishni istasangiz, ko'rgazmaga tashrif buyuring. Tengdoshlaringizning ijod namunalari kuzatib, siz ham olam-olam taassurotlarga ega bo'ling. Aytgancha, ushbu ko'rgazma iyul oyi so'ngigiga qadar davom etadi.

Mahmudjon AZIMOV.
Surat muallifi:
Z. NISHONOVA



EZGU MAQSADLAR YO'LIDA

Bizga maktub yo'llabsiz...

Bugungi kunda yurtimizning osoyishtaligi, tinchligini ta'minlash, sarhadlarini mustahkam qo'riqlashni maqsad qilib olgan o'zbek zabitlarining safi tobora ortib bormoqda. Bu sohada eng jasur, mard yigitlar xizmat qiladi.

Endilikda respublikamizning bir qator umumta'lim maktablarida harbiy-sport sinflari tashkil etilgan. Ana shunday ta'lim muassasalaridan biri bizning maktabimizdir. Ayni paytda mazkur ziyi maskanida ellikdan ortiq o'quvchilar harbiy kasb sirlarini qunt bilan o'rganishmoqda.

Tahsil davomida ustozlarim va malakali zabitlardan safda yurish, jismoniy chiniqish, qo'l jangi kabi bilimlarni o'rgandik. Bundan tashqari, maktabimizda yengil atletika, voleybol, qo'l jangi, dzyudo, futbol kabi sport turlari bo'yicha musobaqalar muntazam o'tkazib turiladi.

Yaqinda maktabning 5-sinf o'quvchilari orkestr sadolari ostida

safda yurish mahoratlarini namoyish etishdi. Ushbu tantanali marosimda O'zbekiston bayrog'ini ko'tarib shaxdam qadamlar tashlab, oldingi safda borar ekanman, qalbimni ona Vatanga bo'lgan mehr-muhabbat hissi qamrab oldi. Shu damda vaqti kelib men ham zabit bo'lib, mamlakatimiz tinchligi va osoyishtaligini ta'minlashga o'z hissamni qo'shishni orzu qildim. Kelajakda dilimga tukkan barcha ezgu maqsadlarim ro'yobga chiqishiga ishonaman.

Bekzod JUMAYEV,
poytaxtimizning Hamza tumanidagi 161-umumta'lim maktabi bitiruvchisi

Mana, bitiruv imtihonlari ham ortda qolmoqda. Oldinda kirish sinovlari. Men hujjatlarimni Toshkent davlat sharqshunoslik instituti qoshidagi Olmazor akademik litseyiga topshirib, kelajakda tarjimon bo'lmoqchiman.

ORZULAR SARI...



Dugonam Go'zal Nuriddinova esa Toshkent turizm kollejiga o'qishga kirmoqchi. Bundan tashqari, u sartaroshlik hunarini o'rganmoqchi. Biz ko'pincha dugonalarim bilan kelajak

nologiyalari kollejida davom ettirmoqchi.

Biz o'zimiz qiziqqan kasbni tanlar ekanmiz, kelajakda tanlagan sohamizning mohir ustasi, yetuk mutaxassis bo'lishga



harakat qilamiz. Kollejlarda ham a'lochilar safida bo'lish asosiy orzuimiz.

Muazzama FOZILIYA,
Toshkent shahar, Sergeli tumanidagi 104-umumta'lim maktabi bitiruvchisi



hayotimiz, orzu-maqsadlarimiz haqida suhbatlashganimizda, Mahliyo Shodmonova moliya sohasiga qiziqishini aytardi. Bugun u hujjatlarini Moliya kollejiga topshirish harakatida. Manzura Azimova o'qishni Toshkent axborot tex-

SHUKURJONGA ZO'R SOVG'A

Sinfdoshim, dugonam Shukurjon juda intiluvchan qiz. Biroq u besh yildan beri xastalik sabab yurishga qiynaladi. Shu bois, u o'tgan davr mobaynida uyida ta'lim oldi. Maktabimiz rahbariyati unga barcha sharoitlarni yaratib bergan.



Shukurjon adabiyot, ingliz tili fanlariga juda qiziqadi. Rasm chizish jon-u dili. Sinf rahbarimiz Zulfiya opa bilan uning uyiga tez-tez borib turamiz, bayramlarda sinfdoshlarimiz bilan konsert dasturlari tayyorlab, ko'rsatamiz. U biz bilan birga qo'shiqlar aytadi. Yaqinda dugonamga ajoyib sovg'a tayyorladik. Sinfdoshlarimiz

bilan maslahatlashib, uni «Tong yulduzi» ga obuna qilib qo'ydik. Bu esa Shukurjonning tug'ilgan kuniga eng zo'r sovg'a bo'ladi.

Tursunoy QADAMOVA,
Xorazm viloyati, Shovot tumanidagi 29-umumta'lim maktabining 7-sinf o'quvchisi

YOSH SOZANDA

Endigina o'n besh yoshni qarshilayotgan Aziza har gal dutorni qo'lga olganida, nozik barmoqlari soz pardalari bo'ylab chaqqon harakatlanarkan, o'zini sehrli dunyoga kirib qolganday his etadi. Dugonalari Dilnoza va Sabohat unga havas bilan boqib, birgalikda mashq qilishadi.



Aziza musiqa bilan birga kitob mutolaa qilishga ham qiziqadi. Shaxsiy kutubxonasida yuzdan ziyod kitoblari bor.

G'allaorol tumanidagi 88-umumta'lim maktabining 7-«A» sinf o'quvchisi Aziza Shodiyeva to'rt yildan buyon tuman markazidagi 15-bolalar musiqa va san'at maktabiga qatnab, ustozlari Dilrabo Bo'riyevadan nazariy va amaliy bilimlarni egallab kelmog'ida. Yosh sozanda bu yil «Yurt kelajagi — iqtidorli

yoshlar» respublika yosh ijrochilar ko'riktanlovi, «Yuksak ma'naviyatli avlod» festivalida muvaffaqiyatli ishtirok etdi. Tinib-tinchimas qizaloq san'atni, adabiyotni sevadi, bo'sh vaqtda she'rlar ham mashq qiladi. Yosh ijodkorga ijodiy barkamollik tilaymiz.

Abdulla SAIDOV,
Jizzax viloyati

TA'TILDAGI TADBIR

Yunusobod tumani Axborot-resurs markazida kitob ko'rgazmasi tashkil etildi.

«Men qanday kitoblar o'qishni yaxshi ko'raman?» mavzusida o'tkazilgan so'rovnoma bolajonlar ko'proq ertak, quvnoq she'r va hikoyalarni sevib o'qishlarini bildirishdi.

Ayniqsa, bolalarga guruhlariga bo'linib, «She'rlarda bitilgan kitob madhi», «Rasmlar tanlovi», «Ifodali o'qish» kabi shartlarda ishtirok etish yanada zavq ulashdi. Unda Sevinch Boymatova, Nilufar Hayitova, Malika Shermatova kabi o'quvchilar g'olib bo'lishdi va sovg'alarni qo'lga kiritishdi. Tadbirda namoyish etilgan kuy-qo'shiqlar va istirohat bog'iga qilingan sayohat bolajonlarga zavq bag'ishladi.

Muzaffar AHMEDOV



YURT JAMOLI BOLALAR TASVIRIDA

Poytaxtimizning Mirzo Ulug'bek tumanidagi Amir Temur mahalla fuqarolar yig'ini boshchiligida 547-maktabgacha ta'lim muassasasi va Toshkent shahar «Barkamol avlod» bolalar ijodiyoti markazi bilan hamkorlikda 1-iyun – Xalqaro bolalarni himoya qilish kuniga bag'ishlangan bayram tadbiri bo'lib o'tdi.

Shahar «Barkamol avlod» bolalar ijodiyoti markazi qoshidagi doirachilar, raqqosalar dastalari tomonidan tayyorlangan milliy kuy, raqs, 547-maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyalanuvchilarining chiqishlari yig'ilgan mehmonlarda katta taassurot qoldirdi.

«Sog'lom bola yili» munosabati bilan yil boshida mahalla bolalari o'rtasida uch bosqichli «O'zbekiston – Vatanim mening» chizilgan rasmlar ko'rik-tanlovi e'lon qilingan edi. Mazkur bayramda ushbu tanlovning birinchi bosqichi yakunlanib, eng yaxshi yosh rassomlar aniqlandi.

18-umumta'lim maktabi o'quvchisi, 11 yoshli Laylo Sirojiddinova tanlovda ishtirok etgan 55 nafar o'g'il-qiz orasida eng mohir rassom nomini oldi. Nigina Usmonova, Samir Mirsafayev, Komila Qurbonova, Mubina Mahmudova, opa-singil Dilnoza va

Shahzoda Abdurahmonovalar tomonidan chizilgan rasmlar ham barchaga birdek manzur bo'ldi.

Bolajonlar homiylar tomonidan turli-tuman o'yinchoqlar, esdalik sovg'alari, faxriy yoriq va diplomlar bilan taqdirlanishdi.

– Azizjon Qobiljonovman. Men ham shu ansamblda childirman. Bu yil maktabga boraman. Bugungi bayramga buvim bilan kelganmiz. Bu yer juda salqin, chiroyli bezatilgan, ayniqsa, rasmlar ko'rgazmasi juda ajoyib ekan. Ularni miriqib tomosha qildim.

Dilorom HOTAMOVA

KULGINGDAN OLAM YASHNAR...

Kuni kecha Toshkent viloyati, Zangiota tumanidagi Keles Madaniyat va aholi dam olish markazida «Kulgingdan olam yashnasin, bolajon!» deb nomlangan tadbir bo'lib o'tdi.



Tadbiring badiiy qismida yosh iqtidor egasi Abdulaziz Nortoyev «Sog'lom bola», «Vatanjonim», «G'unchaman», «Buvijon» kabi qo'shiqlarni ijro etib, barchani xushnud etdi. Shuningdek, markaz qoshida tashkil etilgan raqs to'garagining biridan go'zal chiqishlari

ham mehmonlarda katta qiziqish uyg'otdi.

Tadbir yakunida barcha bolajonlarga esdalik sovg'alari topshirildi.

O'z muxbirimiz

– Shahar «Barkamol avlod» bolalar ijodiyot markaziga ikki yildan beri qatnayman, – deydi 70-umumta'lim maktabining 6-sinf o'quvchisi Fayzulla Nazarov. – N. Berdiyev rahbarligidagi childirmachilar ansambli a'zosiman. Bu bayram tadbiriga o'zimizning konsert dasturimizni tayyorlab kelganmiz. Hamma bolalar xursand, shod. Yurtimizda bayramlar ko'payaversin.

ILM KO'PGA YETKAZAR, HUNAR KO'KKA

Yuqoridagi naqlni o'zlariga shior qilib olgan o'quvchi-yoshlar bo'sh vaqtlarida «Barkamol avlod» Respublika bolalar badiiy ijodiyot markazi qoshidagi to'garaklarda hunar o'rganishmoqda.

Kuni kecha «Vatan ostonadan boshlanadi» shiori ostida bo'lib o'tgan tadbirda ushbu to'garak a'zolarining ijodiy ishlari ko'rgazmasi namoyish etildi. Shu bilan birga, markaz to'garaklarida maktabdan tashqari qo'shimcha ta'lim-tarbiya olgan hamda 2013 – 2014-o'quv yilini yakunlagan 600 nafardan ortiq to'garak a'zolariga guvohnomalar topshirildi.

– Men markazning «Liboslar dizayni» to'garagiga qatnayman. Ustozimiz Mahbuba opa Asomovadan yevropacha hamda milliy uslubdagi liboslar yaratishning sir-asrorlarini o'rganmoqdaman. Bugungi tadbirda ijodiy ishlarimni namoyish qildim. Yig'ilganlarning o'qishlaridan yanada ilhomlanib ketdim.

Kelgusida milliy matolardan zamonaviy uslubda tikilgan liboslarim ko'rgazmasini tashkil etishni rejalashtiryapman, – deydi Chilonzor tumanidagi 126-umumta'lim maktabining 8-«G» sinf o'quvchisi Dilnoza Sa'dullayeva.

– «Munchoqli bezak» to'garagiga qatnayotganimga bir yil bo'ldi. Shu vaqt mobaynida rangli munchoqlardan gullar, daraxtlar yasashni o'rgandim.

«Qiz bola epli bo'lishi kerak», deydilar oyim. Shu bois, men bu hunarni mukammal o'rganib, yaqinlarimga o'z qo'llarim bilan yasagan buyumlarimdan sovg'a qilsam,



deyman, – deydi poytaxtimizning Olmazor tumanidagi 11-umumta'lim maktabining 8-«A» sinf o'quvchisi Zulfiya Abdurashidova.

Tadbir so'nggida «Folklor» doirachilar va xalq raqslari to'garagi a'zolarining tayyorlagan bayram dasturi kechaga o'z gacha fayz kiritdi.

Ozoda TURSUNBOYEVA.
Suratlar muallifi:
Zuhra NISHONOVA



IJODIY BAHSGA CHORLAYMIZ SIZNI

Aziz gazetxon! Eng ulug', eng aziz bayramimiz Mustaqilligimizning 23 yilligi hamda «Sog'lom bola yili» munosabati bilan e'lon qilingan «Mustaqillik madhi bolalar ijodida» an'anaviy respublika tanlovi davom etmoqda.

Bugungi sahifamizda xorazmlik tengdoshingiz Rasulbek Egamberdiyevning chizgan rasmlarini, sirdaryolik Nodira G'oziyevaning «Vatan» deb nomlangan she'rini e'tiboringizga havola qilamiz.

Rasulbek ta'til davomida yanada ko'proq rasm chizish va badiiy adabiyotlarni mutolaa qilishni, Nodira esa ingliz tilini puxta o'rganish hamda sportning stol tennisi turi bilan jiddiy shug'ullanishni rejalashtirgan. Ularning kelajakdagi orzulari osmon kabi ulkan. Ikki tengdoshingizga barcha orzu-istaklaringiz ijobat bo'lsin, deya respublikamizdagi o'g'il-qizlarni ijodiy bahsga chorlaymiz.



Tuproq'ingni ko'zimga suray,
Seni deya jonimdan kechay.
Xizmatimga doim shay turay,
Ko'zlarimga nur bergan Vatan.

Tomirimdan oqqan qaynoq qon,
Vujudimda urib turgan jon.
Vijdonimsan, ham toza imyon,
Qalb to'ridan joy bergan Vatan.

Og'ir kunlar o'tdi boshingdan,
Aylanayin qutlug' yoshingdan.
Dunyo aytar senga sharaf-shon,
Baxtli erka qizingman, Vatan.

Nodira G'OZIYEVA,
Sirdaryo viloyati, Oqoltin tumanidagi
17-umumta'lim maktabi bitiruvchisi



Gul

Kitob bilan do'stlashing

Rasulbek EGAMBERDIYEV,
Xorazm viloyati, Urganch shahridagi
17-umumta'lim maktabining 6-«V» sinf o'quvchisi

Ingliz tilini o'rganamiz! Let's learn English!

MAXSUS SO'ROQ GAPLAR

1. Maxsus so'roq gaplar gapning biror-bir bo'lagiga beriladi va Who - Kim?; What - Nima?, Qanday?; Which - Qaysi?; When - Qachon?; Where - Qayerda?; Why - Nima uchun?; How - Qanday?; How much - Qancha?; How many - Nechta?; How long - Qancha vaqt?; Necha soat? - kabi so'roq so'zlar yoki so'zlar guruhi bilan boshlanadi.

2. Maxsus so'roq gaplarda so'z tartibi umumiy so'roq gaplarnikiga o'xshaydi, faqat gapning boshida so'roq so'zlar qo'yiladi:

- When, + yordamchi fe'l + ega + asosiy fe'l....?
Where, modal fe'l
Why, + yordamchi fe'l + ega + asosiy fe'l....?
How, modal fe'l
How much, modal fe'l
How many, modal fe'l

3. For example:

- Who is a doctor?
When did the teacher read an interesting story to the students?
What book is lying on the table?
How many children study in that classroom?
Who gives you English lesson?
Where did you spend your leave?
Which do you like, tea or coffee?



Test:

1. ... is your mother's name?
A) What;
B) Why;
C) When.
2. ... are you going?
A) How much;
B) Who;
C) Where.
3. ... English books do you have?
A) What;
B) How many;
C) Why.

Nigora ABDUNAZAROVA tayyorladi

Some and Any

Look at the chart

Some

Some - bo'lishli gaplarda, sanaladigan va sanalmaydigan otlardan oldin ishlatiladi.

For example: She has some friends from Samarkand.

Any

Any - bo'lishsiz va so'roq gaplarda, sanaladigan va sanalmaydigan otlardan oldin ishlatiladi.

For example: He doesn't have any brothers.
Do you have any English books?

Lekin biror narsa so'raganda yoki iltimos qilganda, so'roq gap bo'lsa ham «some» ishlatiladi.

For example:



Make these sentences correct form.

- birds singing/There are/ some/on the tree/ Look!
some/cake/Would you like?
Do you know/in Bukhara/who lives/ somebody.
about him/We don't/ know/anything.
Can/more juice/I have/ some?
any problems/I/didn't find.



O'zDJTU talabasi
Dinara SHAKIROVA tayyorladi

O'ZBEKISTON

Gulla, yashna go'zal diyor
O'zbekiston,
Kindik qonim tomgan diyor
hur guliston.
Tinchlik istar farzandlaring,
avlodlaring,
Noming bo'lgay jahon ichra
she'r-u doston.

Nodirabegim RAHIMOVA,
Navoiy viloyati, Qiziltepa
tumanidagi 12-umumta'lim
maktabining 6-sinf o'quvchisi

BAXTINGA BOR BO'LING...

Mehringizdan yorishgay olam,
Munisim, azizim, mehribonginam.
Siz-la hayot to'kisdir har dam,
Baxtinga bor bo'ling, mo'tabar nam.

Oila tinchligini o'ylaysiz mudom,
Bir qo'lda beshig-u, bir qo'lda olam.
Sizning hayotingiz bizlar-chun ibrat,
Baxtinga bor bo'ling, mo'tabar nam.

Mehnatigiz cheksiz, oltinga tengdir,
Bardoshingiz menga tutqazdi qalam.
Sabringiz tog'dayin, bag'ringiz kengdir,
Baxtinga bor bo'ling, mo'tabar nam.

Orzular qilasiz, qilasiz havas,
Farzandlar kamoli bo'lsin deb be kam.
Qalbmning tubidan keladi bir sas:
Baxtinga bor bo'ling, mo'tabar nam.

Hulkar XIDIROVA,
Qashqadaryo viloyati, Qamashi
tumanidagi 28-umumta'lim
maktabining 8-«A» sinf
o'quvchisi



Kavsar TURDIYEVA



QUYOSHLI KUN

Chaqmoq chaqdi chaqindan,
Choparlardek chopdik biz.
Yomg'ir yog'di, yomg'ir yog'di,
Yopinchiqlar yopdik biz.

Soyabonning chetlaridan,
Asta-sekin bo'ylaymiz.
Quyosh haqda, Quyosh haqda,
Quyosh haqda o'ylaymiz.

Oymomadek, yulduzlardek,
Quyosh olam naqshidir.
Quyoshli kun, quyoshli kun,
Hamma kundan yaxshidir.

Bulutlardan Quyosh bo'ylar,
So'zlar tashlab qadamlar.
Quyoshlidir barcha kun ham
Bo'lsa yaxshi odamlar.

Quyoshli qalb, quyoshli qalb
Hamma qalbdan yaxshidir.
U insonning, u zamonning,
U jahonning naqshidir.

Quyoshlidir, quyoshlidir,
Kunlarimiz barchasi.
Qalbmizda yonsa basdur,
Quyoshning bir parchasi.

CHIP-CHIPJON

haqida jangigina qissa

Yayra
SA'DULLAYEVA



(Davomi. Boshi o'tgan sonlarda)

– Qoravoy, Qoravoy... – Jimitvoy
Qoravoyni ko'rib, qo'rqib ketdi.

Chip-chipjon atrofga alang-jalang
qaradi. Qo'shni hovli tomonga qandaydir
soya o'tib ketdi. Shundagina Chip-
chipjonning nafasi joyiga tushgandek
bo'ldi.

– Yegim kelyapti, – dedi Jimitvoy
Chip-chipjonga erkalanib va panjara
ichidagi ko'katlarga qaradi.

– Bular biz uchun emas, bizga...

Hali gapini tugatib ulgurmagan edi,
ular yoniga kerilganicha O'jarvoy kelib
oldi. Boshini g'oz ko'tarib, bo'g'iq ovozi
bilan ququg'ladi-da, panjarani shosha-
pisha gir aylanib chiqdi. Keyin... Chip-
chipjon ko'zlariga ishonmadi. O'jarvoy
timirskilana-timirskilana panjaraning
ichkarisiga yo'l topgandi. U tuproqqa
bota-bota yer bag'irlab o'tib, barq urib
o'sayotgan ko'katlarni yeya boshladi. U
ko'katlarni uch-to'rt cho'qib,
ko'rdinglarni, degandek Chip-chipjon va
Jimitvoyga qarab qo'yardi. Yana chirt-
chirt uzib, tumshug'ini osmonga ko'tarib,
ishtaha bilan yutinardi.

Mittivoylarning yegilari kelsa ham, undan
judayam xafa bo'lib ketishdi.

– Ko'p yema, qorning og'riydi.

– Bizni yeb qo'yishmasin, deb
panjara o'rashgan, – deyishdi ikkovlari
oldinma-ketin.

O'jarvoy ularning gapiga quloq
solmadi. Yegani ustiga ancha-muncha
joyni payhon qilib borardi. Chip-chipjon
Quyosh sari bo'y cho'zib o'sayotgan
ko'katlar o'rnida yulingan, ezilgan
ekinlar qolayotganini ko'rib, yig'lab
yubordi.

– Bo'ldi endi, bu yoqqa chiq!

O'jarvoy ularni mayna qilib qo'ydi.
Jimitvoylar ko'ziga ko'katlar yig'layot-
ganga, yordamga chaqirib, yolvorayot-
ganga o'xshadi. Endi ular qarab
turisholmadi. Oppoq buvining holidan
xabar olayotgan Chipor xola yoniga
borishdi.

– O'jarvoy...

– Oyijon, O'jarvoyingiz...

Chipor xolaning rangi quv o'chib,
qo'rqib ketdi.

– Kasal bo'lib qoldimi? Qayerda?

– Yo'q... anu yerda...

Chipor xola battar xavotirlanib, ular
ketidan yugurdi. Qarasa... Chipor xola
O'jarvoydan bunaqangi ishni kutmagan
ekanmi, hang-u mang bo'lib qoldi. Asta-
sekin qadam bosib, panjaraga
yaqinlashdi.

– Bu yoqqa chiq!

O'jarvoy yalt etib onasiga qaradi.
Yegani og'zida qoldi. Chiqib ketishga joy
topolmay dovdiradi, oyog'i toydi.
Kirishida tuproqqa qorishib qanday
kirgan bo'lsa, chiqishda undan battar
qiynaldi. Chiqib olgach, panjara yonidan
yer bag'irlab ketmoqchi edi, oyisini ko'rib
to'xtadi. Ich-ichidan Chip-chipjonni
yomon ko'rib ketdi. «Chaqma-chaqar,
hali shoshmay tur-chi», deb qo'ydi
o'zicha. Ukalari uning gapini eshitdimi,
yo'qmi, bilmadi. Lekin Chipor xola
eshitdi va bir orziqib tushdi.

– Sizlar borib Oppoq buviga
qaranglar.


Jimitvoylar orqalariga qaray-qaray
Oppoq buvining oldiga ketishdi.

Chipor xola qilmishi uchun
O'jarvoyni rosa urishmoqchi, hatto
qamab ham qo'yimoqchi bo'ldi. Faqat
hali juda yoshligini hisobga olib, qulog'iga
gap kirar, degan niyatda bosiqlik bilan
dedi:

– Avvalo, sen odamlar mehnatini
poymol qilding. Qolaversa... ko'katlarga
achinib ketishganidan menga xabar
bergan ukalaringni chaqma-chaqar,
deyapsan, senga o'zi qachon aql kiradi?

Chipor xola ancha nasihat qildi.
O'jarvoy xo'mrayganicha jim quloq
soldi. Chaqma-chaqar deb ukalariga
baho berganidan u achinarimidi, hali
buni o'zi yaxshi bilmasdi. Chipor
xolaning gapi uni to'g'ri yo'lga
solarmidi, buni ham yaxshi bilmasdi...
Ammo oyijonisining keyingi kunlarda
jonini kuydirib gapirishi, o'z xatti-
harakatlari va yoqimsiz qiliqlarini o'ylab
ko'rishga majbur qilardi.

(Davomi bor)



DUNIYODA QANCHA BOLALAR

Dunyoda qancha, qancha bolalar,
Dunyoda ancha, ancha bolalar.
Ularda duk-duk urar yuraklar,
Ularda ko'p-ko'p orzu tilaklar.

Ranglari turli, turli bolalar,
Yo'llari nurli, nurli bolalar.
Orzusi mo'ldir, mo'ldir bolalar,
Birlashsa zo'rdir, zo'rdir bolalar.

...Eng muhimi, rivojlangan mamlakatlardagi tengdoshlari bilan tillashuv va bellashuvga tayyor bo'lib, tobora hal qiluvchi kuch darajasiga ko'tarilayotgan siz, aziz yoshlarimiz, farzandlarimiz bilan biz ko'zlagan maqsadlarimizga, albatta, erishamiz.

Islom KARIMOV

ULKAN YUTUQLARGA CHORLAYVER, «BARKAMOL AVLOD»!



Namangan shahridagi «Navbahor» stadioni uzra 29-31-may kunlari akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o'quvchilarining «Barkamol avlod - 2014» sport musobaqalari mash'alasi porlab turdi.

IMKONIYATLAR SAMARASI

– Sport va do'stlik bayrami – «Barkamol avlod - 2014» bellashuvlari rekordlar va unutilmas voqealarga boy bo'ldi, – deydi Qashqadaryo viloyati terma jamoasi a'zosi, 400 va 800 metrga yugurish bo'yicha ikkita oltin medal sohibi Azizbek Samadov. – Ushbu musobaqalar mamlakatimizning barcha hududlarida sport izchil rivojlanib borayotganini yana bir bor ko'rsatdi. Bu yurtimizda yosh avlodning barcha sohalar, jumladan, sportda ham o'z iste'dodini keng namoyon etishi uchun yaratilayotgan sharoit va imkoniyatlar samarasidir. Bu biz yoshlarning xalqaro miqyosda ham Vatanimiz sharafini munosib himoya qila olishimizga ishonch uyg'otadi.

G'AMXO'RLIK VA E'TIBORNING AMALDAGI IFODASI

– «Barkamol avlod - 2014» sport o'yinlarida Namangan viloyati yoshlarining umumjamoa hisobida ikkinchi o'rinni egallashiga hissa qo'shganimdan xursandman, – deydi tennis bo'yicha oltin medal sohibi Humoyun Sultonov. – Yurtboshimizning biz yoshlarga ko'rsatayotgan doimiy g'amxo'rli va e'tiborining amaldagi ifodasi – Namangan shahrida qad rostlagan zamonaviy sport inshootlari navqiron avlodning jismonan sog'lom, ma'nan yetuk insonlar bo'lib voyaga yetishiga xizmat qiladi.

YUKSAK SHARAF

– Navbatdagi «Barkamol avlod» musobaqasining final bosqichi Jizzax viloyatida o'tkazilishi biz uchun yuksak sharafdir, – deydi Jizzax Olimpiya zaxiralari kollejining suzish bo'yicha murabbiysi G'ayrat Usmonov. – Uch bosqichli uzluksiz sport tizimining o'rta bo'g'ini musobaqalari bizning viloyatimizda ham yuksak saviyada o'tishiga ishonamiz.

...Stadion uzra yangrayotgan mayin musiqa sadolari ostida «Barkamol avlod - 2014» sport o'yinlarining bayrog'i tushirildi. Uni namanganlik yosh sportchilar navbatdagi musobaqaga mezbonlik qiladigan Jizzax viloyati vakillariga topshirdi.

Gullar shahrida bo'lib o'tgan sport o'yinlarining mash'alasi musobaqa qatnashchilari qalbiga jo bo'lib ulgurdi va bundan-buyon ularning katta sport sari yo'lini yoritib, yangi va yanada ulkan yutuqlarga chorlayveradi.

Jamshid KAMOL

Prezidentimiz rahnamoligida yosh avlodga ko'rsatilayotgan ulkan e'tibor va yaratilayotgan keng imkoniyatlarga javoban yuksak va qat'iy maqsad, ezgu orzular bilan buyuk kelajak sari chog'lanayotgan bugungi yoshlar orasidan xalqaro maydonlarda Vatanimiz sharafini munosib himoya qiladigan bo'lajak jahon va Olimpiada chempionlari yetishib chiqmoqda.

Zero, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarning mazmun-mohiyati yoshlarga nafaqat jahon standartlari asosida bilim berish, balki ularning jismoniy va ma'naviy jihatdan yetuk insonlar bo'lib voyaga yetishi uchun sharoit yaratishdan iborat. Sport navqiron avlod vakillarida yuksak ma'naviyat, kuchli iroda, g'alabaga intilish, halollik, vatanparvarlik kabi oliyjanob fazilatlarini tarbiyalaydi.

Keyingi yillarda Andijon, Chirchiq, Nukus va Termiz shaharlari mezbonlik qilgan ushbu musobaqalarda qatnashgan yoshlarning iqtidori va mahorati muntazam oshib borayotganini ko'plab sportchilarimiz xalqaro maydonlarda salmoqli yutuqlarga erishayotganida ham ko'rish mumkin. Yoshlarni komillik sari undayotgan mazkur sport anjumanida ishtirok etayotganlar orasidan ko'plab mahoratli sportchilar yetishib chiqdi. Ular Olimpiada va Osiyo o'yinlari, jahon va qit'a chempionatlarida sovrinli o'rinni qo'lga kiritayotir.

Sportning 16 turi – basketbol, voleybol, futbol, gandbol, shaxmat, og'ir atletika, boks, dzyudo, taekvando WTF, erkin va yunon-rum kurashi, suzish, yengil atletika, tennis, stol tennisi, badiiy gimnastika bo'yicha bellashuvlarda 996 nafar

litsey va kollej o'quvchilari ishtirok etishdi. Eng muhimi, bellashuvlar halol raqobat ruhida o'tdi. Epchil, chaqqon va kuchli sportchilar o'z mahoratini namoyish etib, oltin, kumush va bronza, jami 652 medal uchun bahs olib bordi.

Musobaqada eng ko'p medal jamg'arib, birinchi o'rinni egallagan Toshkent shahri jamoasi



yuksak mukofot – O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning «Barkamol avlod - 2014» sport o'yinlari qatnashchilariga tabrigining asl nusxasi va Prezident sovg'asi – «Damas» avtomobili bilan taqdirlandi.

Umumjamoa hisobida ikkinchi o'rinni egallagan Namangan va uchinchi pog'onadan joy olgan Samarqand viloyatlari jamoalariga Prezident sovg'asi – «Damas» avtomobillari topshirildi.

Musobaqalarda alohida mahorat ko'rsatgan, iroda va g'alabaga intilishini namoyon etgan, tengqurlari orasida yuqori natijalarga erishgan bir guruh sportchi-o'quvchilar maxsus sovrinlarga sazovor bo'ldi.

«Barkamol avlod - 2014» dasturi doirasida sport musobaqalari bilan bir qatorda ko'plab madaniy tadbirlar – taniqli sportchilar, yozuvchi va shoirlar, madaniyat va san'at namoyandalari bilan uchrashuvlar, gullar shahri Namanganning diqqatga sazovor joylariga sayohatlar tashkil etildi. «Barkamol avlod - 2014» o'yinlarining yopilish marosimi sportchilarning ko'rgazmali chiqishlari va san'atkorlarning katta konserti bilan yakunlandi.



«O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etilgan ommabop eng yangi adabiyotlar



Mana, ta'til ham boshlanib, turli kitoblarni miriqib mutolaa qilish vaqti keldi. Bu borada esa sizga mazkur ruknimiz orqali tavsiya etayotgan adabiyotlarimiz qo'l keladi, degan umiddamiz.

MA'NAVIYAT MULKIGA SAYOHAT

САЙДУНИРОВА
МА'НАВИЯТ
МУЛКИГА
САЁХАТ

Sizga havola etmoqchi bo'lgan keyingi kitobimiz shunday nomlanadi. Adabiyotshunos olim Saydi Umirov qalamiga mansub bu kitob chindan ham sizni ma'naviyat olamiga yetaklab, komillikka chorlaydi. Asarda ulug' insonlar xotirlanib, ularning ma'naviy dunyosi ibrat qilib ko'rsatilgan.

«KIM KO'P KITOB O'QIYDI?» respublika tanloviga marhamat!

Kitob – insonning eng yaqin do'sti. U sohibini yaxshilikka yetaklaydi. Ayniqsa, uning bola tarbiyasidagi o'rni bebahodir.

Uch bosqichli «Kitobxonlar bayrami», «Kitobxon maktab», «Yilning eng yaxshi kitobxon», «Kitob bizni birlashtiradi», shuningdek, «Adabiyotga e'tibor – ma'naviyatga, kelajakka e'tibor» shiori ostida respublika Kitob bayramini o'tkazishdan maqsad ham kitobxonlar safini yanada kengaytirishdir.

Qadrli tengdoshlar! Mana, yozgi ta'tilni ham boshlab yubordingiz. Yozgi mavsumni yanada maroqli va mazmunli o'tkazishingizga biroz bo'lsa-da, hissa



qo'shish maqsadida «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi, «Kamalak» respublika bolalar tashkiloti hamda «Tong yulduzi» gazetasi hamkorligida «Kim ko'p kitob o'qiydi?»

an'anaviy respublika tanlovini e'lon qilamiz. Ishtirokchilarning surati, o'qigan badiiy kitoblari ro'yxati, maktabdagi eng yaxshi kitobxon o'quvchi ekanligini tasdiqlovchi maktab direktori va sinf rahbarining tavsifnomasi «Tong yulduzi» gazetasi tahririyatiga yuboriladi. Maktubda telefon raqamingizni ko'rsatishni unutmang. Maktublaringizni elektron pochta orqali ham yo'llashingiz mumkin.

Tanlov 1-oktabr – O'qituvchilar va murabbiylar kuni arafasida yakunlanadi.

Chunki shogirdlar yutug'i ustozlar bayramiga eng qadri sovg'a bo'lishi shubhasiz.

Tanlovda faol ishtirok eting va eng ko'p kitob o'qiydigan o'quvchi nomini oling!

ZUBAYDA olgan suratlar

«SUYUNCHI» DAN SUYUNCHI

Hangoma-yu hajriyalarni qiziqib o'qimaydigan bola bo'lmasa kerak?! Qator hikoya-yu qissalari bilan o'quvchilar e'tiborini qozongan qalamkash Mirzo Ahadning «Suyunchi» nomli kitobini o'qib chiqsangiz, bir-biridan qiziq voqea-yu hangomalarning guvohi bo'lasiz.



TEZ AYTISH

Go'zal g'azal to'qidi,
G'azalni go'zal o'qidi.

Anvar MIRZAZODA



BO'SH O'TIRMA, BOSH QOTIR!

B	I	L	I	M	D	O	N

1. A'lo baho.
2. Dedalning o'g'li.
3. Darkor, kerak.
4. Bino, uy.
5. ... Namozov (xonanda).
6. Mevaning urug'i.
7. Borliq, dunyo.
8. Dasturxon ko'rki.

Tuzuvchi: Fayzulla ABDULLAYEV

9-iyun 2014

Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, «KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi, «SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga qarashli bo'lmagan xalqaro xayriya fondi.

Bosh muharrir
Feruz A DILOVA

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 0208-raqam bilan 2007-yil 2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI:
Omonulla YUNUSOV,
Abdug'ani XOLBEKOV,
Bahodir G'ANIYEV,
Svetlana INOMOVA,
Murtazo SULTONOV,
Zoir ISAJONOV,
Feruz JALILOVA,
Sa'dullo TURSINOV
(Bosh muharrir o'rinbosari),
Feruz MATYOQUBOV
(mas'ul kotib),
Sobitxon TURG'UNOV,
Zikrilla TESHABOYEV

Navbatchi muharrir
Dilorom HOTAMOVA
Rassom
Feruzbek KAMOL o'gli
Dizayner
Olovuddin ORIPOV

Manziliimiz:
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Indeks: 100129.
Obuna indeksi: 198.
e-mail:
info@tongyulduzi.uz
www.tongyulduzi.uz

Tel./faks: 244-63-08
Tel./faks:
(99871) 244-38-10

«O'zbekiston» NMIUda chop etildi. Tahririyatga kelgan barcha qo'lyozmalar tahrir qilinadi, mualliflarga qaytarilmaydi. Haftaning dushanba kuni chiqadi. Shakli A-3, 2 bosma taqoq. ISSN 2010-6092 Adadi – 51210 Buyurtma – S 111